



FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMINING QARORI

№ 88 « 15 » 02 2021-yil

Beshariq tumani N.Axmedov saxovati MMTP hududidagi tuman hokimligi zaxirasida bo'lgan yer maydonida paxta-g'allachilik yo'nalishida fermer xo'jaligi tashkil etish uchun tanlovda g'olib bo'lgan "Komiljon Axmedov saxovati" fermer xo'jaligiga uzoq muddatli ijarada foydalanish uchun qo'shimcha yer maydoni ajratib berish to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 19-noyabrda 1523-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan "Fermer xo'jaligini yuritish uchun yer maydonlarini berishda tanlov g'olibini aniqlash tartibi to'g'risida"gi Nizomga, tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 26.01.2021-yildagi yig'ilish qarori va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 30.01.2021-yildagi VI-XXVII/127-sonli qarorini ko'rib chiqib, O'zbekiston Respublikasi "Fermer xo'jaligi to'g'risida" gi va O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida" gi Qonunlarining 6-,25-moddalariga va to'plangan hujjatlarga asosan,

QAROR QILAMAN

1. Tuman hokimligi huzuridagi fermer xo'jaliklariga yer maydonlarini (realizatsiya qilish) masalalarini ko'rib chiqish bo'yicha komissiyasining 26.01.2021-yildagi yig'ilish bayoni va Xalq deputatlari Beshariq tumani Kengashining 30.01.2021-yildagi VI-XXVII/127-sonli qarori asos uchun qabul qilinsin.

2. N.Axmedov saxovati MMTP hududidagi 436, 435, 444, 443, 445, 446, 447, 458, 455, 456, 457, 452, 450, 441, 439, 437, 434, 433- konturlardagi jami; 57.6 gektar shundan; 53.9 gektar ekin maydoni, 0.8 gektar ariq va zovurlar, 0.7 gektar ixota daraxtzorlar, 0.4 gektar yo'llar, va 1.8 gektar boshqa yer maydonlari paxta-g'allachilik yo'nalishida fermer xo'jaligi qo'shb olish uchun tanlovda g'olib bo'lgan "Komiljon Axmedov saxovati" nomli fermer xo'jaligiga 48 yil muddatga ijarada foydalanish uchun ajratib berilsin.

3. N.Axmedov saxovati MMTP hududidagi "Komiljon Axmedov saxovati" paxta-g'allachilik yo'nalishida fermer xo'jaligiga qo'shimcha paxta-g'allachilik yo'nalishda yer maydoni ajratilishi munosabati bilan fermer xo'jaligini 436, 435, 444, 443, 445, 446, 447, 458, 455, 456, 457, 452, 450, 441, 439, 437, 434, 433, 190, 196, 222, 518, 521, 523, 525, 188, 218, 221, 220, 191, 519, 528, 524, 223, 517, 522, 526, 195 498, 500, 501, 502, 514, 505, 506, 503, 504, 508, 510, 511, 512, 513, 481, 482k, 567, 568, 569, 571, 572, 573, 574, 581, 579, 578, 580, 585, 584, 583, 768, 769, 767, 771, 770, 772, 773, 774, 775, 776, 765, 582, 763, 764, 762, 766, 589, 590a, 592a, 591, 595a, 597a-konturlardagi umumiy yer maydoni jami; 232.8 gektar shundan; 204.7 gektar ekin maydoni, 10.6 gektar ariq va zovurlar, 0.6 gektar bog'zor, 0.1 gektar tutzor, 5.2 gektar ixota daraxtzorlar, 3.3 gektar yo'llar, va 14.3 gektar boshqa yer maydonlari; etib belgilansin hamda yer uchastkasini uzoq muddatli ijaraga olish shartnomasini rasmiylashtirish vazifasi tuman Kadastr Agentligi Beshariq tumani bo'limi boshlig'i (M.Madaminovga) ga yuklatilsin.

4. Tuman Qishloq xo'jaligi bo'limi (E.Shomurodov) ga, "Komiljon Axmedov saxovati" nomli fermer xo'jaligiga qo'shimcha ajratib berilgan yer maydonlari bo'yicha O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 501-son qarorining 1-ilovasi bilan tasdiqlangan "Tugatilyotgan yoki maqbullashtirilayotgan fermer xo'jaligi yoki qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi boshqa sub'ektlarga ajratilgan yer maydonida sarflangan harajatlar qiymatini hisoblash va qoplash tartibi to'g'risida"gi Nizom talablariga muvofiq, qishloq xo'jaligi harajatlarini tegishli tartibda hisoblash va o'tkazish topshirilsin.

5. Beshariq tumani "Davlat xizmatlari markazi" boshlig'i (M.Obidov) ga ushbu fermer xo'jaligiga qo'shimcha yer maydoni ajratib berilishi munosabati bilan o'rnatilgan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazish vazifalari yuklatilsin.

6. Tuman Statistika bo'limi (O.Komilov), tuman Davlat soliq inspeksiyasi (T.Xusanov)larga:
- yagona davlat reestriga kiritish hamda soliqlar to'lanishi va hisobotlarni topshirilishini nazorat qilish vazifalari yuklatilsin.

7. Mazkur qarorni ijrosini nazorat qilish tuman hokimining Qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari S.Artiqov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi



R. Jo'rayev